

VOLUME-3, ISSUE-6  
Abdulla Qahhor ijodiy merosi

Boltayeva Iroda

Nukus DPI talabasi

**Annotatsiya:** Abdulla Qahhorning hikoyalarida hajviy, satirik uslubdagi jihatlari ham yetakchi o'rin egallagan. Hikoyalarida insonning qadr-qimmatini pastga uradigan turli-tuman nuqsonlar har xil illatlar badiiy jihatdan teranlik bilan atroflicha tanqid qilinganini ko'rishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Qahhor, yozuvchi, ijodiy meros, badiiy so'z.

Qisqa so'zda ko'p ma'mo ifodalash mahorati egasi - mashhur hikoyanavis, badiiy so'zga chachan, tejankor sa'atkori Abdulla Qahhor 1907-yilning 17-sentabrida Qo'qon shahri yaqinidagi Asht qishlog'i Ko'mir bozori mahallasi temirchi oilasida dunyoga kelgan. Abdulla dastlab Buvaydadagi eski maktabda, keyin Oqqo'rg'on qishlog'idagi jadid maktabida, Qo'qondagi internatda, jadid maktabida, 1922-1924-yillarda mobaynida esa Qo'qonda ochilgan o'qituvchilar tayyorlaydigan texnikumda tahsil oladi. 1926-1930-yillar O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'ZMU)ning pedagogika fakultetida o'qiydi. 1925-yilda Toshkentga kelib kechasi o'qib, kunduzi "Qizil O'zbekiston" gazetasida ishlaydi. 1968-yil 25-mayda Maskvada vafot etadi, hamda Toshkentdagi CHig'atoy qabristoniga dafn etiladi.

Abdulla Qahhor bizga juda katta adabiy meros qoldirgan bo'lib, U o'z ijodini 1924-yildan boshlagan. U "Nish", "Norin SHilpiq", "Mavlono Kufur", "Erkaboy", "E-boy", "SArimsoq", "Gulyor" va shu kabi tahalluslar ostida qalam tebratgan. A.Qahhor ayniqsa hikoya janrining ravnaqiga katta hissa qo'shgan. Jumladan, "Bemor", "Anor", "O'g'ri", "Kampirilar sim qoqdi", "Daxshat", "Mayiz yemagan xotin", "Ming bir jon", "Asror bobo", "Maston", "Tomoshabog'", "Millatchilar", "Adabiyot muallimi", "Ko'k kanvert" kabi bir qator hikoyalari muhlislar qalbidan joy olgan. A.Qahhor buyuk rus yozuvchisi CHexovni o'ziga ustoz sanagan. A.Qahhor hikoyalari shartli ravishda 3 yo'nalishga: tarixiy, hajviy, zamonaviy hikoyalarga ajratish mumkin. "Xotinlar", "Asror bobo", "Ming bir jon", "Mahalla" kabi hikoyalari zamonaviy yo'nalishdagi hikoyalardir.

1) Qahhor "...Kuydirish uchun kuyish, ardoqlanish uchun ardoqlash shart"- degan fikrlarni ilgari surib "Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak!" deb takidlagan. Abdulla Qahhorga katta shuhrat keltirgan asri bu - "Sarob" ramanidir. Yana u "Qo'shchinor chiroqlari" haqida "Romanni tanqid xush qabul qilgan bo'lsa ham, ta'birimdagi kitob emas"- deydi. Abdulla Qahhor "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoniga, mustaqillik davrida esa "Buyuk hizmatlari uchun" ordeniga munosib topilgan. Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti (1966) laureti "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan. Uning nomi toshkent va Qo'qondagi bir necha ko'cha, maktab va jamoa xo'jaliklariga, shuningdek, madaniyat uylari va respublika satira teatiriga berilgan. Toshkentda A.Qahhor uy-muzeyi ochilgan.

**VOLUME-3, ISSUE-6**

Abdulla Qahhorning hikoyalarida hajviy, satirik uslubdagi jihatlari ham yetakchi o'rin egallagan. Hikoyalarida insonning qadr-qimmatini pastga uradigan turli-tuman nuqsonlar har xil illatlar badiiy jihatdan teranlik bilan atroflicha tanqid qilinganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Bek", "Og'aynilar", "Ikki yarti bir butun", "Munofiq" kabi hikoyalarida A.Qahhor laganbardorlik, xushomadgo'ylik, munofqlik kabi illatlarni qattiq qoralab, ushbu unsurlar hamisha jamiyatga za'ari, odamlarning o'zaro munosabatlariga raxna soluvchi illat bo'lib kelgan, ammo muayyan sharoitda bu illatlar, ayniqsa mumofiq insonlar boshiga sonsanoqsiz kulfatlar keltirishini mohirona tasvirlab bergan. Bundan tashqari A.Qahhor hikoyalarida xotin-qizlar obrazlariga alohida e'tibor qaratgan mahoratli yozuvchilardandir. Buning dalilini "Ming bir jon" hamda "Mayiz yemagan xotin" hikoyalari ochib beradi. Ayol obrazi dunyo adabiyotida aks etishi alohida mavqeyga egadir. Uning jamiyatdagi mavqeyi u yashagan davr bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, "Dahshat" hikoyasidagi Unsin, "Ming bir jon" hikoyasidagi Mastura, "Xotinlar", "Maston" kabi hikoyalarida turli xil xarakterdagi xotin-qizlar obrazlarining talqinini ko'rishimiz mumkin. Garchi bu asarlarning barchasida ayollar obrazi yetakchi darajadagi qahramon darajasiga chiqmagan bo'lsa-da, asarda ko'zlangan maqsadni u yoki bu darajada ochish uchun hizmat qilgan. Jamiyatda xotin-qizlarning tengligi, ozodligi uchun erlari bilan tengma-teng ishlashi mavzusi yaqin badiiy shaklda ochiladigan hikoyalardan biri bu "Mayiz yemagan xotin" hikoyasidir. SHu g'oyadagi tish-tirnog'i bilan qarshi turgan mulla Norqo'zi paranjisini ochgan xotin-qizlar shaniga kecha-yu kunduz bo'xtan to'qiydi.

Qahhor hikoyalarining yana bir fazilatini takidlab o'tish kerakki, yozuvchi hikoyalarida shaxs taqdiri, muhit sharoiti bilan, xalq hayoti bilan mustahkam bog'liq holda beriladi. SHaxs taqdirining shakllanishi va yo'nalishini belgilab asoslab beradigan obrazlardan biri bu "Ming bir jon" hikoyasidagi Mastura matonatli ayol sha'niga mathihalar bitadi. Hikoya qahramoni Mastura Aliyevna o'n yildan beri og'ir dard chekadi "Tomog'idan hech narsa o'tmay qolganligi, go'yoki ko'z o'ngimizda xasta emas, haqiqiy o'lik, sap-sariq teri-yu, suyaklardan iborat bo'lgan murda ichiga botib ketgub ko'zlarini katta-katta ochib yotar edi"-deya ta'riflangan bu qahramonning hayotga qaytishi, sog'ayib ketishiga Akramjonning say'i harakatlari hamda o'zining hayotga bo'lgan muhabbati sabab bo'la oladi. Hikoyada Masturaning qalbi, irodasi kuchli tasvirlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulla Qahhor asarlar II kitob Toshkent G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1987.
2. Nilufar Rasulova Adabiyotdan qo'llanma 1-kiob Toshkent "Nurafshon Ziyoyog'dusi" 2018
3. Yusupov, S. (2023). Use of Zononyms in Works. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD).
4. Shamaksudova, S. K. (2023). Scientific and Theoretical Foundations of the Concept of Media Text in Media Linguistics. International Journal of Social Science Research and Review, 6(4), 551-555.

**VOLUME-3, ISSUE-6**

5. Shukurova, G. K. (2023). THE ROLE OF STYLISTIC DEVICES IN THE IMPLEMENTATION OF THE AUTHOR'S INTENTION. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ (pp. 167-169).

6. Kh, S. G. (2023). The Factors Determining the Development of the Modern Uzbek Literary Language. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 10(5), 491-496.

